

BOSHLANG'ICH SINIF FANLARINI BADIY ASARLAR BILAN INTEFRATSIYA ASOSIDA TASHKIL QILISH

Namunaxon Tursunova
Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda mutolaa madaniyatini shakllantirish va uni badiiy adabiyot asarlari bilan integratsiya qilish masalalari yoritilgan. Boshlang'ich sinf darslarini badiiy matnlar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish yo'llari ko'rsatib berilgan. Luqmon Bo'rixonning "Sirli muallim" asari orqali muallimlik kasbining sharaflari va insoniy fazilatlar, Abduqayum Yo'ldoshevning "Jadid" asari orqali esa ma'rifatparvarlik va taraqqiyot yo'lida fidoyilik g'oyalari tahlil qilingan. Maqolada asarlar asosida dars jarayonini samarali tashkil etish, integratsion yondashuv orqali o'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmalarini, milliy g'urur va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga oid tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim-tarbiya, boshlang'ich ta'lim, mutolaa madaniyati, badiiy asarlar, integratsiya, ma'naviyat, axloqiy tarbiya, "Sirli muallim", "Jadid", jadidchilik, ma'rifat, muallimlik.*

Har bir davr va jamiyatda ta'lim tarbiya bevosita ma'naviyatning tamal toshi bo'lgan. Mamlakatni rivojlantirish birinchi navbatda ta'lim-tarbiya sohasiga borib taqaladi.

Donishmadlar "Bir xalqni yo'q qilmoqchimisiz shunchaki shu xalqni bilimsiz qilib qo'y" deganlar.

Xalqni bilimli qilish uchun eng avvalo ma'naviyatini, ma'rifatini, dunyoqarashini boyitish va kengytirish lozim. Buning uchun farzandlarimizni yoshligidanoq kitobga muhabbatli bo'lishga o'rgatib borishimiz kerak. Mazkur maqolada boshlang'ich sinflardan bolalarda mutolaa madaniyatini shakllantirish, fan mavzularini badiiy asarlar bilan integratsiya qilish asosida tashkillash masalasi yoritilgan.

Shunga muvofiq istiqloq davrida yaratilgan ko'plab asarlar ham ma'naviyatimiz ko'zgusi bo'lib kelmoqda. Ko'zguda esa maqtagulik jihatlari ham, ko'ngilni xira qiladigan, iztirob chekishga majbur etadigan jabhalar ham mavjud. Ana shunday mavzulardan biri – muallimlik va uning mas'uliyatidir. Muallimlik eng sharaflari va eng mas'uliyatli kasblar sirasiga kiradi.

Luqmon Bo'rixonning "Sirli Muallim" asarida halollik, ishonch, adolatparvarlik, ilmga chanqoqlik kabi hislatlar yoritilgan. Asar chekka bir qishloqdagi maktab hayoti va undagi og'riqli nuqtalar haqida bo'lib, muallif asar epigrafi sifatida A.Oripovning

"Muallim haqida so'zim ushbu

Muallim kamolot ichra ko'zgudir"

jumlalarini olgan.

Yozuvchi Luqmon Bo'rixon ham bu jihatga e'tibor qaratgan holda ijodida "aks ettirilayotgan qatlamlarning chuqurligi unda harakat qilayotgan odamlarning jonliligi, xarakter tabiati va shaxsiy miqyoslariga bog'liq bo'ladi. Yozuvchi voqealarning harakatchanligiga qancha ko'p e'tibor bersa, qahramonlarining jonli va hayotiy chiqishi uchun shuncha ko'p jon kuydiradi.

Sirli muallim Najot G'aybullaning diplomi sohtaligi va ishlab turgan joyidan birzumda g'oyib bo'lishi asar kulminatsiyasiga misol bo'la oladi. Asarda tugun, voqealar rivoji va yechim yonma-yon keladi. Tugun paydo bo'lgandan keyin uning yechim topishgacha bo'lgan jarayonida voqealar rivoji paydo bo'ladi.

Asarda Najot G'aybullaning g'oyibdan kelib ishlashi va birdan yo'q bo'lib qolishi yoki Umrzoqovning haykali to'satdan yo'qolishi tugun bo'lsa, Xurramovichning Najot G'aybullaning ishini surishtirgani va u haqida ma'lumotlar izlashi voqealat rivoji bo'la oladi. Endigi masala – ushbu tugunlarning yechimini topish.

Voqealar rivoji davomida Xurramovich asardagi tugunni yechadi. Ya'ni Najot G'aybullaning birdan maktablariga kelishining sirini topadi. Ushbu jarayondagi tugunga yechim topiladi va izma-iz yana tugun paydo bo'ladi. Najot G'aybulla izsiz g'oyib bo'ladi, asar tugunligicha qolgan.

U hozir qayerda, nima ish bilan shug'ullanyabdi, shu va shunga o'xshash savollarga javob yo'q. Bu ham bugungi kundagi asarlarga mos xususiyat. Chunki, qahramonning keyingi hayotini kitobxon o'zi kashf etadi.

Najod G'aybulla geografiya o'qituvchisi va o'z kasbining fidoyilaridan. Uning fidoyiligi faoliyat boshlagan maktabiga darsliklar olib kelgani, geografiya kabineti uchun videokasseta, teleapparaturalar izlab topgani va shu kabi ishlari bilan bolalar mehrini qozonganida ko'rinadi.

Asarda Najot G'aybullani o'zining alohida xarakteriga ega qahramon deb ayta olamiz. Chunki, uning boshqa obrazlardan ajralib turadigan farqlari bir qancha. Masalan, uning o'zini tutishi, yurish-turishi, kiyinishi va hako'zolar. Asar tahliliga e'tibor bersak, uning naqadar mavzusiga mos ekanligini anglaymiz. Sirli muallimning hayoti sirililigicha qolgan.

"Sirli muallim" asarini 1-sinf Tarbiya fanining "Men va fazilatlarim" bo'limi mavzulariga aloqadorligi quyidaicha:

Mehribonlik – Najot G'aybulla bolalarga mehr bilan yondashadi ;

Adolatparvarlik – Asar orqali adolatsizlikka qarshi kurash ko'rsatilgan;

Sadoqat – Kasbiga mehr bilan yondashgani.

Darsga integratsiya qilish

Asardan soddalashtirilgan hikoya qilib beriladi.

Najot ismli bir muallim bor edi. U bolalarni juda yaxshi ko'rardi. U darsni qiziqarli qilib o'tar, bolalar unga mehr bilan qarardi. Boshqa muallimlar esa uni ko'rolmay, yomon gaplar tarqatishdi. Ammo oxir-oqibat, odamlar uning rostgo'y va halol muallimligini tushunib yetishdi.

O'quv faoliyatlari.

Rasm chizish: “Mehribon muallim” — o‘quvchilar o‘zining yaxshi muallimini chizishadi;

Topishmoq: “Halol kim?” – o‘qituvchi fazilatlar haqida kichik topishmoq beradi;

So‘zlashuv doirasi: “Men qanday bo‘lishni xohlayman?” – har bir bola fazilat aytadi.

Dars xulosasi sifatida quyidagilar aytiladi: Mehribon bo‘lsak, hammaga yaxshi ta‘sir qilamiz. Halol bo‘lish – bu eng katta fazilat. O‘qituvchi yoki bola bo‘lishimizdan qat‘iy nazar, rostgo‘y, adolatli, mehnatkash bo‘lishimiz kerak. Zamon shiddat bilan rivojlanib borar ekan, biz asardagi Qalqonov, Norxol, Boymurodddek kadr emas, Najot G‘aybulladek o‘z kasbining jonkuyari bo‘lmog‘imiz lozim. Zero, ilm olmoq ham ilm bermog‘ ham bizga shar‘iy hukm qilib berilgan.

Abduqayum Yoldoshevning “Jadid” asari va 1-sinf Tarbiya fanining 4-bo‘limi “Bizning madaniyatimiz” bilan bog‘lash orqali dolzarb mavzu ma‘rifat uchun kurash va hozirda bu farovon hayotga qanday erishganimiz haqida yosh avlodga taqdim etishdir.

Jadid asari orqali buyuk insonlar qanday iz qoldirgani o‘rgatiladi.

Asosiy qisim: Jadid asarida ozodlik uchun insonlarning ma‘rifatli o‘qimishli bo‘lishi uchun asrlar o‘tsa ham qoldirgan izlari o‘chmaydigan jadidlar haqida so‘z boradi. Rossiya imperyasi Turkiston o‘lkasini bo‘shib olgandan keyin bu xalqning madaniyatini ma‘rifatini yo‘q qilgan. Buning natijasida Turkiston aholisi uzoq yil qaramlikda yashab kelgan.

Qachonki, buyuk Jadidlar urush maydoniga kelmaguncha. Asarda jadidchilik harakatida mardonavor harakat qilgan Ubaydulla Xojiyev o‘zing o‘qimishligi ma‘rifatparvarligi bilan alohida ajralib turadi. Uning o‘z qarashlari orqali Tolstoyga xat yozadi hammaga ham javob yozmaydigan yozuvchi Lev qahramonimiz xatini takror takror o‘qib javob qaytaradi.

Xojiyev buyuk ishlarga qadamni shu yerdan boshlaydi. U ayoli Katya (Kamoladan) ayrilgandan so‘ng, o‘qishni tugatib Toshkentga qaytadi. U yerda advokatlik sohasi bilan shug‘ullanib qiynalgan aholiga yordam bera boshlaydi shu jadidlar guruhiga qo‘shiladi, aholi orasida martabasi ko‘tarilib nomi chiqadi. Taniqli jadidlar (Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon) bilan gurungda o‘tirgan chog‘larida Munavvarqori shunday deydi: Qoloqlik va jaholat, elimizning ayanchli ahvoli, Turkistonning Ovrupo va jahon tamaddunidan ortda qolib ketishi, islom va shariatning oyoq osti qilinishi — bular bizning bugungi kunimiz voqeliklaridur. G‘aflat va jaholat xobidan uyg‘onmoq fursati allaqachon yetgon, azizlarim.

Millatimizning mudhish, fojeli qismatiga tomoshabin sifatida qarab turmoq er kishining ishi ermas, bil‘aks, butun aql-zakovatimizni, hayotimizni taraqqiyot uchun, erk uchun safarbar etmog‘imiz joiz va shart.

Aks holda tarix bizni kechirmaydur, el-ulus bizni kechirmaydur. Shundan so‘ng Turkiston aholisi uyg‘otish uchun spektakllar tashkil etishadi. Ubaydulla Turon truppassi boshchiligida Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” pyesai teatrlashtirilgan. Bu ishlari yuqori boshliqlari tomonidan qoralanib Andijonga surgun qilinadi. U yerda ham o‘zing kasbi orqali aholi qalbidan joy oladi.

U yerda ham jadidchilik harakatlarini olib boradi. Shu tariqa hayoti surgunlarda kechadi shunday bo'lishga qaramay o'zing maqsadi yo'lida olg'a boradi. Aholining qanchalar ilm fandan orqada qolganini Boqijonboy orqali ham ko'rish mumkin. Ubaydulla qilgan harakatlari orqali 1938-yil 20- fevral qattiq qiynoqlardan so'ng o'tib o'ldiriladi.

Tarbiya kitobining mavzularini ham bu asar bilan integratsiya qilib olib borilsa bo'ladi. "Jadid" asari orqali yoshlarga ma'rifat, ozodlik va taraqqiyot yo'lida kurashgan buyuk insonlar – jadidlarning hayoti, faoliyati va fidokorligi haqida chuqur tushuncha beriladi. Ular xalqni uyg'otish, bilim va taraqqiyot sari yetaklash uchun hayotlarini xavf ostiga qo'ygan.

Asarda Ubaydulla Xo'jayev kabi ma'rifatparvarlar obrazida jadidlarning mardona harakati, ularning g'oyalari va bosib o'tgan mashaqqatli yo'llari ochib beriladi. Jadidlarning maqsadi xalqni johillikdan chiqarib, ilm va taraqqiyot sari yetaklash bo'lgan. Asar orqali bugungi avlodga o'tmishdagi fidokorlar faoliyati namuna qilib ko'rsatiladi.

Maqolada ta'lim-tarbiya jarayonida mutolaa madaniyatini shakllantirish, badiiy asarlarni fanlar bilan integratsiya qilishning ahamiyati yoritilgan. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda adabiyot namunalaridan foydalanish samarali usul sifatida ko'rsatib berilgan.

Luqmon Bo'rixonning "Sirli muallim" asari misolida muallimlik kasbining sharaflari va mas'uliyatli jihatlari, halollik, adolat, sadoqat kabi insoniy fazilatlar ifodalangan. Asar tahlili jarayonida o'quvchilar uchun tarbiyaviy topshiriqlar ishlab chiqilishi dars jarayonini yanada qiziqarli va mazmunli qiladi. Shuningdek, Abduqayum Yoldoshevning "Jadid" asari orqali o'quvchilarga ma'rifatparvarlik, ozodlik va taraqqiyot yo'lida kurashgan jadidlar faoliyatini o'rgatish muhimligi asoslab berilgan.

Umuman olganda, maqolada ta'lim jarayonida badiiy asarlardan foydalanish o'quvchilarda nafaqat kitobxonlik ko'nikmasini, balki milliy g'urur, tarixiy xotira va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim vosita ekanligi ta'kidlangan. Integratsion yondashuv orqali dars jarayonlari yanada samarali, mazmunli va hayotiy bo'lishi mumkinligi isbotlangan.